

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFALI TA'LIM PLATFORMALARINI QO'LLASH

Mastonkulov Sanjar Turdikulovich

TKTI Yangiyer filiali o'qituvchisi

E-mail: smtkontakt@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi davrda o'qitishning an'anaviy dars shakllariga nisbatan masofali ta'lism shakliga yaqqol ehtiyoj tug'ildi. Pandemiya sabab deyarli ta'limga barcha bo'g'inlari masofali ta'lism shakliga ma'lum bir muddatga bo'lsa ham o'tdi. Oliy ta'lism muassasalarida masofali ta'lism nisbatan sifatli tashkillashtirilgan bo'lsada, umumta'lism va professional ta'lism muassasalarida masofali ta'lism sifatini oshirish kerakligi sezilib qoldi. Ushbu maqolada kollej va texnikumlarda masofali ta'limga amalga oshirish uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Masofali ta'lism, kontent, LMS, Moodle, platforma, dasturiy vosita.

Avvalo masofali ta'lism nima degan savolga, Ta'lism to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan)da javob berilgan. Qonunning 16-moddasida masofaviy ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: "*Masofaviy ta'lism o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lism oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.*"

Masofali ta'limga yaratish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- dasturiy vositalar;
- texnik va moliyaviy resurslar;
- malakali axborot texnologiyalari mutaxassis mutaxassisasi mavjudligi.

Dasturiy vositalarga masofali ta'lism platformalari hamda o'quv kurslarini yaratishda qo'llaniluvchi amaliy dasturlar (masalan, Word, Power Point, Photoshop va b) kiradi.

Texnik resurslarga zamonaviy kompyuter jihozlarini aytish mumkin. Zamonaviy o'quv kurslarini tashkil etishda kompyuter jixozlaridan tashqari skaner, videokamera, modem kabi qurilmalar ham zarur bo'ladi. Moliyaviy resurslar masofali ta'lism platformasi uchun domen, xosting, sayt yaratish bilan bog'liq xizmatlarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi. Ta'lism muassasada o'qitiladigan



fanlar va tinglovchilarning soniga qarab xosting xizmatini katta ta’riflarini (5-10 Gb dan ortiq) tanlash maqsadga muvofiq. Agar fan resurslarida video kontent ko‘p bo‘lsa, yanada ko‘proq joy tanlash zarur bo‘ladi.

Malakali axborot texnologiyalari mutaxassisasi esa LMS (*Learning Management System* – Ta’limni boshqarish tizimlari) ni yaratish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Hozirda eng keng tarqalgan ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) dan biri bu Moodle platformasi hisoblanadi.

Moodle (“Modular Object - Oriented Dynamic Learning Environment”) bepul va ochiq kodli dastur bo‘lib, qo‘srimcha imkoniyatlarni taqdim etuvchi 1500 dan ortiq pluginlarga ega.

Moodle Windows, Mac OS, Linux operatsion tizimlarida va PHP ishlatalishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy boshqa tizimlarda ham modifikasiyalarsiz qo‘lanilishi mumkin. Ma'lumotlar MySQL va PostgreSQL ma'lumotlar bazasida saqlanadi, ammo ma'lumotlar bazasini boshqarishning tijorat tizimlari ham ishlatalishi mumkin. Yangi versiyaga o‘tishda qiyinchilik va muammolar kelib chiqmaydi.

Moodle dasturiy ta’minotini www.moodle.org saytidan bepul yuklab olishingiz va saytingizga o‘rnatishingiz mumkin.

Tizim ko‘plab o‘quv elementlari va manbalarni yaratishga imkon beradi, shuning uchun Moodledagi kurslar shunchaki ma’ruzalar va topshiriqlar to‘plami emas. Tajribali o‘qituvchi tomonidan yaratilgan Moodle tizimidagi kurs tashqi qiyofasi va maqsadi bilan farq qiladigan bir-birini to‘ldiruvchi elementlarning tuzilishiga o‘xshaydi. Ma’ruzalar, topshiriqlar va testlar kabi standart o‘quv elementlaridan tashqari, Moodle tizimida o‘quv jarayonini faollashtirishga yordam beradigan bloglar, lug‘at, forumlar, seminarlar qo‘llaniladi. Forumda siz guruhlarda munozaralar o‘tkazishingiz, xabarlarni baholashingiz, ularga har qanday formatdagi fayllarni biriktirishingiz mumkin. Shaxsiy xabarlarda va sharhlarda – muayyan muammoni o‘qituvchi bilan shaxsan muhokama qilishingiz mumkin. Suhbatda munozara real vaqtda amalga oshiriladi.

Moodle o‘quvchilarning rivojlanishini nazorat qilishning qulay vositasini taqdim etadi. Moodle har bir talabaning portfelini (o‘qituvchilarning baholari va sharhlari, forumdagi xabarlar, barcha taqdimotlar) yaratadi va saqlaydi. Talabalarning faolligi, ularning tarmoqdagi o‘quv ishlari vaqtini “davomat” ni boshqarishga imkon beradi. Natijada o‘qituvchi o‘z vaqtini samaraliroq o‘tkazadi. Platforma talabalar to‘g‘risidagi quyidagi statistik ma'lumotlarni taqdim etadi: ko‘rilgan ma’ruza materiallari va dars elementlari, testlarda ishslash va boshqalar.



Moodle platformasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning asosida elektron ta’limning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ommaviy ochiq onlayn kurslarni (MOOC) o‘tkazishni tashkil etish mumkin.

Yuqoridagi imkoniyatlardan ko‘rinyaptiki, Moodle platformasi boshqa LMS platformalariga qaraganda afzallik tomonlari ko‘p.

Bitta platforma negizida istalgancha o‘quv kurslarini yaratish, uni turli elementlar (ma’ruza, video material, vizual tasvir, nazorat testi va boshqalar) bilan boyitish mumkin. Foydalanuvchilarni ro‘yhatga olish va ularni o‘quv kurslarga ulash mumkin. Har bir foydalanuvchiga unikal login va parol beriladi. Foydalanuvchilarning maqomi (ma’mur, o‘qituvchi, talaba, mehmon) ham turlicha bo‘lishi mumkin. Ular maqomiga yarasha turli amallarni bajara olishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Moodle tizimini kollej, texnikum va istalgan boshqa ta’lim muassasalari uchun masofali ta’lim platformasini yaratishda eng yaxshi yechim sifatida qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Fayzieva, p.f.n. D.Sayfurov Virtual ta'lism texnologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016.
2. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya, Toshkent-2009
3. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T. Fan va texnologiya. 2012.
4. D.B.Abduraximov, M.D.Bahodirov, S.T.Mastonkulov - Andijon davlat universiteti -«Innovatsion g’oyalar, ishlanmalar amaliyotga: muammolar, tadqiqotlar va yechimlar» Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman “Talabalarni o‘qitish va bilimini nazorat qilishda o‘rgatuvchi tizimlardan foydalanish” -2021